

MA'MURIY ISLOHOTLAR DOIRASIDA MADANIYAT VA TURIZM SOHASIDA DAVLAT BOSHQARUVINI SAMARALI TASHKIL QILISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI**

BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABLARI FAOLIYATINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA 2016 — 2020-YILLARGA MO'LJALLANGAN DAVLAT DASTURI TO'G'RSIDA

Qayd etib o'tilsinki, Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009 — 2014-yillarga mo'ljallangan Davlat dasturining amalga oshirilishi natijasida respublika mintaqalarida zamonaviy o'quv uskunalari va musiqa asboblari bilan jihozlangan 278 ta bolalar musiqa va san'at maktablari ishga tushirildi. Natijada 2008-yilga nisbatan bolalar musiqa va san'at maktablarining quvvati 1,2 barobarga, o'qituvchilar tarkibi — 1,3 barobarga, o'quvchilar soni 1,5 barobarga ortdi. Mazkur davr mobaynida respublikaning yosh iste'dodli musiqachilari va ijrochilari tomonidan ijro mahorati bo'yicha nufuzli xalqaro tanlovlarda 441 sovrinli o'rinlar qo'lga kiritildi.

Bolalar musiqa va san'at maktablarini qurish va hududiy jihatdan maqbul joylashtirish bo'yicha boshlangan ishlarni mantiqiy davom ettirish, o'sib kelayotgan yosh avlodning umumiy o'rta ta'limi va ularni har tomonlama ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning bir-biriga bog'langan yaxlit tizimini shakllantirish, bolalarning ijodiy salohiyatini yanada keng ochib berish, musiqa va san'atning boshqa turlarini chuqurroq tushunishi hamda ularga nisbatan mehr-muhabbat uyg'otish, musiqa va tasviriy san'at sohalarida jahon buyuk merosini o'rganib bilishlari uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida:

1 Quyidagilarni o'z ichiga olgan Bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha 2016 — 2020-yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi:

2016 — 2020-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida bolalar musiqa va san'at maktablarini yangitdan qurish, mukammal rekonstruksiya qilish va jihozlashning asosiy parametrlari **1-ilovaga** muvofiq;

2016 — 2020-yillarda bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar kompleksi **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha 2016 — 2020-yillarga mo'ljallangan Davlat dasturining asosiy vazifalari va yo'nalishlari etib quyidagilar belgilansin:

bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyatini yangi sifatli mazmun bilan boyitish, ularni bolalarning umumiy o'rta ta'limi va ma'naviy-axloqiy tarbiyasi butun tizimining ajralmas tarkibiy qismi sifatida shakllantirish, ma'lum bir asbobni chalish texnikasini egallash bilan bir qatorda, jahon mumtoz musiqasini, dunyoga tanilgan buyuk bastakorlar va rassomlarning ijodini chuqur o'rganish, o'quvchilarning musiqiy va umumiy madaniyatini oshirish, bolalarda butun umri davomida hamroh bo'ladigan musiqa hamda san'atning boshqa turlariga qiziqishni kuchaytirish va muhabbatni har tomonlama singdirish;

bolalar musiqa va san'at maktablarini namunaviy loyihalar bo'yicha yangitdan qurish va mukammal rekonstruksiya qilish orqali ularning tarmog'ini yanada rivojlantirish, umum ta'lim maktablari joylashuvini hisobga olgan holda aholi zich yashaydigan massiv va qishloqlarda oqilona va qulay joylashtirilishini nazarda tutgan holda respublikaning barcha mintaqalarida, shu jumladan qishloq joylarda ularni maqbul hududiy joylashtirish va buning asosida musiqa hamda san'atning boshqa turlari bilan shug'ullanishni istayotgan bolalarni yanada to'liq qamrab olishni ta'minlash;

bolalar musiqa va san'at maktablarida butun o'quv-tarbiya jarayonini tubdan yaxshilash, ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda yangi o'quv dasturlari va o'qitish metodikalarini ishlab chiqish hamda joriy etish, mukammal o'quv-pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish;

bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash hamda foydalanish samaradorligini oshirish, ularni yangi avlod zamonaviy o'quv uskunalari va anjomlari, shu jumladan multimediya shaklidagi o'quv adabiyoti va metodik qo'llanmalar, mahalliy va xorijiy kompozitorlar ijodiga doir nota to'plamlari va klavirlar, shuningdek sifatli ko'rgazmali materiallar bilan ta'minlash;

O'zbekiston Davlat konservatoriyasi, Glier nomidagi respublika ixtisoslashtirilgan musiqa akademik litseyi hamda mintaqalardagi musiqa va san'at kasb-hunar kollejlari imkoniyatlaridan keng foydalangan holda bolalar musiqa va san'at maktablari o'qituvchilari, konsertmeysterlari va sozlovchilarini tayyorlash va malakasini uzluksiz oshirish tizimini takomillashtirish.

4. Bolalar musiqa va san'at maktablarini qurish, mukammal rekonstruksiya qilish va jihozlashni moliyalashtirish manbalari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari;

imtiyozli xorijiy kreditlar va grantlar, yuridik va jismoniy shaxslarning xayriya qo'yilmalari, shuningdek, qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar.

5. Belgilansinki:

mintaqalarda yangi bolalar musiqa va san'at maktablarini qurish faqat ularni hududiy joylashtirishning ishlab chiqilgan sxemalariga muvofiq, tasdiqlangan namunaviy loyihalar bo'yicha amalga oshiriladi;

bolalar musiqa va san'at maktablarini qurish va mukammal rekonstruksiya qilishni tashkillashtirish bo'yicha buyurtmachi vazifasi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzuridagi "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi zimmasiga yuklatiladi;

bolalar musiqa va san'at maktablarini jihozlash bo'yicha buyurtmachi vazifasi O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi zimmasiga yuklatiladi;

bolalar musiqa va san'at maktablarini yangitdan qurish uchun shaharlar va tumanlarda yer uchastkalarini tanlash umumta'lim maktablari yaqin bo'lgan aholi zich yashaydigan massiv va qishloqlarda oqilona va qulay joylashtirishini nazarda tutgan holda amalga oshiriladi;

yangi qurilgan va mukammal rekonstruksiya qilingan bolalar musiqa va san'at maktablari obyektlarini foydalanish uchun qabul qilish [4-ilovaga](#) muvofiq tarkibdagi Davlat komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

6. O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi bolalar musiqa va san'at maktablarining yangi qurilishi va mukammal rekonstruksiya qilinishini tasdiqlangan namunaviy loyihalar va loyiha yechimlariga qat'iy muvofiq holda amalga oshirish talablarining so'zsiz bajarilishi, shuningdek bajarilayotgan qurilish-montaj ishlari sifati, qurilish me'yorlari va qoidalariga rioya qilinishi ustidan arxitektura- qurilish nazoratini o'rnatish.

7. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi, Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi bir oy muddatda 2016-yil uchun bolalar musiqa va san'at maktablarini yangitdan qurish va mukammal rekonstruksiya qilish obyektlari bo'yicha loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish, Qurilish-pudrat tashkilotlari ro'yxatiga kirgan tashkilotlarni jalb qilgan holda pudratchilarni saralab olish bo'yicha tanlov tender savdolarini o'tkazish, tanlov savdolari g'oliblari bilan pudrat shartnomalari tuzishni ta'minlasin.

8. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Madaniyat vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari har yili Investitsiya dasturi loyihasi va qurilishning manzilli ro'yxatini shakllantirishda Davlat dasturida nazarda tutilgan 2016 — 2020-yillarda bolalar musiqa va san'at maktablarini yangitdan qurish va mukammal rekonstruksiya qilishning asosiy parametrlarini hisobga olsin.

9. Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxatlar bo'yicha Bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha 2016 — 2020-yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi doirasida bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasini

mustahkamlash uchun olib kiriladigan musiqa asboblari va maxsus uskunalar 2021-yilning 1-yanvarigacha bojxona to'lovlaridan (bojxona rasmiylashtiruv yig'imlaridan tashqari) ozod etilsin.

10. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri Sh. Mirziyoyev zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. KARIMOV

Toshkent sh.,
2015-yil 20-noyabr,
PQ-2435-son

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 20-noyabrdagi PQ-2435-son qaroriga
1-ILOVA

2016 — 2020-yillarda bolalar musiqa va san'at maktablarini yangitdan qurish, mukammal rekonstruksiya qilish va jihozlashning

ASOSIY PARAMETRLARI

birlik

Joyi va qurilish turi	Jami	Shundan:				
		2016 yil	2017 yil	2018 yil	2019 yil	2020 yil
Respublika bo'yicha jami	98	18	20	20	20	20
shundan:						
yangi qurilish	40	7	8	8	9	8
mukammal rekonstruksiya	58	11	12	12	11	12
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4	1		1	1	1
shundan:						
yangi qurilish	4	1		1	1	1
mukammal rekonstruksiya						
Andijon viloyati	10	2	2	2	2	2
shundan:						
yangi qurilish	4	1		1	1	1
mukammal rekonstruksiya	6	1	2	1	1	1
Buxoro viloyati	4	1		1	1	1
shundan:						
yangi qurilish	3			1	1	1
mukammal rekonstruksiya	1	1				
Jizzax viloyati	3	1	1			1
shundan:						
yangi qurilish						
mukammal rekonstruksiya	3	1	1			1
Qashqadaryo viloyati	13	2	3	3	3	2
shundan:						
yangi qurilish	4	1	1	1	1	
mukammal rekonstruksiya	9	1	2	2	2	2
Navoiy viloyati	2		1		1	
shundan:						
yangi qurilish						
mukammal rekonstruksiya	2		1		1	
Namangan viloyati	12	2	3	3	2	2
shundan:						

yangi qurilish	4		1	1	1	1
mukammal rekonstruksiya	8	2	2	2	1	1
Samarqand viloyati	15	2	3	3	4	3
shundan:						
yangi qurilish	6	1	2	1	1	1
mukammal rekonstruksiya	9	1	1	2	3	2
Surxondaryo viloyati	11	2	2	2	2	3
shundan:						
yangi qurilish	6	1	1	1	1	2
mukammal rekonstruksiya	5	1	1	1	1	1
Sirdaryo viloyati	1	1				
shundan:						
yangi qurilish	1	1				
mukammal rekonstruksiya						
Toshkent viloyati	4	1	1	1		1
shundan:						
yangi qurilish	1		1			
mukammal rekonstruksiya	3	1		1		1
Farg'ona viloyati	10	2	2	2	2	2
shundan:						
yangi qurilish	4	1	1	1	1	
mukammal rekonstruksiya	6	1	1	1	1	2
Xorazm viloyati	7	1	1	2	1	2
shundan:						
yangi qurilish	1					1
mukammal rekonstruksiya	6	1	1	2	1	1
Toshkent shahri	2		1		1	
shundan:						
yangi qurilish	2		1		1	
mukammal rekonstruksiya						

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 20-noyabrdagi PQ-2435-son qaroriga
2-ILOVA

**2016 — 2020-yillarda bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyatini yanada
takomillashtirish bo'yicha**

CHORA-TADBIRLAR KOMPLEKSI

T/r	Chora-tadbirlar	Ijro muddatlari	Mas'ul ijrochilar
I. Bolalar musiqa va san'at maktablarini respublikaning barcha hududlarida, shu jumladan qishloq joylarda ularni keyinchalik qurish, rekonstruksiya qilish va jihozlash asosida hududiy joylashtirilishini takomillashtirish			
1.	14,7 ming o'quv joylariga ega 98 ta qo'shimcha bolalar musiqa va san'at maktablarini qurish, rekonstruksiya va modernizatsiya qilish.	2016 — 2020 yy.	Madaniyat vazirligi, Davarxitektqurilish, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari

2.	Bolalar musiqa va san'at maktablarini qurish va mukammal rekonstruksiya qilish manzilli dasturiga kiritiladigan obyektlarning loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish, pudratchilarni tanlash bo'yicha savdo tenderlarini o'z vaqtida o'tkazishni ta'minlash, bunda Qurilish-pudrat tashkilotlar ro'yxatiga kirgan tashkilotlarni jalb qilish.	Har yili 1-dekabrga qadar qurilish yili boshlanishidan oldin	Davarxitektqurilish, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
3.	Bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha 2016 — 2020-yillarga mo'ljallangan Davlat dasturiga muvofiq bolalar musiqa va san'at maktablarini yangidan qurish va mukammal rekonstruksiya qilish hududiy manzilli dasturlarini ishlab chiqish. Manzilli dasturlarni ishlab chiqishda bolalar musiqa va san'at maktablarini yangidan qurishga zich bo'lgan shahar va tumanlarda yer uchastkalarini tanlashni, aholi zich yashaydigan massiv va qishloqlarda oqilona va qulay joylashtirilishini nazarda tutgan holda amalga oshirish hamda umumta'lim maktablari yaqiniga joylashtirish.	Har yili 1-iyunga qadar qurilish yili boshlanishidan oldin	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Madaniyat vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi
4.	Bolalar musiqa va san'at maktablarini qurish va mukammal rekonstruksiya qilish obyektlarida qurilish-montaj ishlarini olib borishda namunaviy loyihalar talablari hamda tasdiqlangan qurilish me'yor va qoidalariga rioya etilishini ta'minlash.	2016 — 2020 yy.	Davarxitektqurilish
5.	Qurilishi yakunlangan va mukammal rekonstruksiya qilingan bolalar musiqa va san'at maktablarini o'z vaqtida va sifatli qabul qilinishini ta'minlash.	2016 — 2020 yy.	Yangi qurilgan va mukammal rekonstruksiya qilingan bolalar musiqa va san'at maktablari obyektlarini foydalanish uchun qabul qilish davlat komissiyasi, Madaniyat vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
II. Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash, ularni zamonaviy o'quv uskunolari va anjomlari, yangi avlod o'quv adabiyoti va metodik qo'llanmalar, mahalliy va xorijiy bastakorlar ijodiga doir nota to'plamlari, shuningdek, sifatli ko'rgazmali materiallar bilan ta'minlash			

6.	Yangidan qurilayotgan va mukammal rekonstruksiya qilinayotgan bolalar musiqa va san'at maktablarini 28,2 mingta o'quv uskunolari va anjomlari, 11,7 ming musiqa asboblari va 57,2 mingta kompyuter va boshqa orgtexnika va mebel bilan jihozlash.	2016 — 2020 yy.	Madaniyat vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Budgetdan tashqari umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi
7.	Musiqa va san'at sohasida yetakchi professor-o'qituvchilar tarkibini jalb qilgan holda bolalar musiqa va san'at maktablari o'quvchilari uchun yangi avlod kitoblari va o'quv qo'llanmalari, nota to'plamlarini yaratish.	2016 — 2020 yy.	Madaniyat vazirligi, O'zbekiston bastakorlar uyushmasi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi, O'zbekiston Davlat konservatoriyasi
8.	Takomillashtirilgan o'quv dasturlari asosida bolalar musiqa va san'at maktablarini 176, 6 ming nusxada 72 nomdagi yangi avlod darslik va o'quv qo'llanmalari, 236,0 ming nota to'plamlari, 15,8 mingta ko'rgazma materiallari va 3,8 mingta multimedia vositalari bilan bosqichma-bosqich ta'minlash dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish.	Ishlab chiqish — 2015 yil IV chorak, 2015 — 2020 yy.	Xalq ta'limi vazirligi, Madaniyat vazirligi, Moliya vazirligi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi
9.	Chet davlatlardan jahon mumtoz musiqasining o'quv qo'llanmalari va nota to'plamlarini sotib olish, ular bilan bolalar musiqa va san'at maktablarini ta'minlash.	2016 — 2020 yy.	Madaniyat vazirligi, Moliya vazirligi
10.	Milliy musiqa san'atining tarixiy merosini o'rganish uchun bolalar musiqa va san'at maktablarini milliy mumtoz musiqa asarlari yozuvlari to'plamlari bilan ta'minlash.	2016 — 2020 yy.	Madaniyat vazirligi, O'zbekiston bastakorlar uyushmasi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi
11.	Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa va san'at akademik litseyining moddiy-texnika bazasini xatlovdan o'tkazish va uni zamonaviy musiqa asboblari va anjomlari bilan jihozlash.	2016 yil 1-sentabrgacha	Xalq ta'limi vazirligi, Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi, Budgetdan tashqari umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi
12.	Davlat dasturiga kiritilgan bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish va mustahkamlash shu jumladan jihozlash uchun imtiyozli shartlarda xorijiy kreditlarni va grantlarni jalb qilish ishlarini faollashtirish.	doimiy	Madaniyat vazirligi, Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi

III. Bolalar musiqa va san'at maktablarida jahon mumtoz musiqasini chuqur o'rganishga yo'naltirilgan o'quv dasturlari va dars o'tish metodikasini tubdan yaxshilash, o'quvchilarning musiqiy va umumiy madaniyatini oshirish, ta'lim jarayoniga rivojlangan o'quv-pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish

13.	Bolalar musiqa va san'at maktablari to'g'risidagi nizomning yangi tahririni ishlab chiqish va tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2015 yil IV chorak	Xalq ta'limi vazirligi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Adliya vazirligi
14.	2015-yil oxirigacha ilg'or xorijiy tajribani, rivojlangan o'quv-pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda bolalar musiqa va san'at maktablarining takomillashgan o'quv dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash hamda 2016-2017 o'quv yilida aprobatsiyadan o'tkazish.	2015 yil IV chorak	Xalq ta'limi vazirligi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi
15.	Aprobatsiya natijalariga ko'ra 2016-2017 o'quv yilida ko'rib chiqilgan o'quv dasturlarini nashr qilish, ularni bolalar musiqa va san'at maktablarining o'quv jarayoni amaliyotiga joriy etish.	2016 yil 1-sentabrgacha	Xalq ta'limi vazirligi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi
16.	O'quv rejalarining barcha yo'nalishlarini, shu jumladan musiqa va san'at sohasida dars berishning ilg'or xorijiy tajribasi asosida intensiv ta'limni joriy etishni hisobga olgan holda qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish	2015 yil IV chorak	Xalq ta'limi vazirligi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Adliya vazirligi
17.	Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish talablarini hisobga olgan holda, bolalar musiqa va san'at maktablariga tegishli qismi bo'yicha maktabdan tashqari ta'limga qo'yiladigan Davlat talablarini qayta ko'rib chiqish, takomillashtirish va tasdiqlash.	2015 yil IV chorak	Xalq ta'limi vazirligi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi
18.	Takomillashgan o'quv dasturlarini hisobga olgan holda zamonaviy pedagogika texnologiyalarini qo'llash asosida bolalar musiqa va san'at maktablari o'qituvchilari uchun yangi metodik qo'llanmalarni ishlab chiqish.	2016 yil I chorak	Xalq ta'limi vazirligi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi
19.	Bolalar musiqa va san'at maktablarining oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarining musiqa va san'at yo'nalishlari bo'yicha ijodiy hamkorligini ta'minlash.	doimiy	Madaniyat vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi

20.	Bolalar musiqa va san'at maktablari va respublika ixtisoslashtirilgan musiqa akademik litseylarining iqtidorli o'quvchilarini jalb qilgan holda jahon va milliy mumtoz san'at yo'nalishida yosh ijrochilarning xalqaro tanlovlarini tashkil qilish.	ikki yilda bir marta	Madaniyat vazirligi, O'zbekiston bastakorlar uyushmasi, Moliya vazirligi
21.	Iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, ularning iqtidori va ijodiy yutuqlarini rag'batlantirish maqsadida yosh ijrochilarning respublika tanlovlarini muntazam ravishda tashkil etish.	doimiy	Madaniyat vazirligi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi
22.	O'quvchilarning ijrochilik mahoratini oshirishni rag'batlantirish va o'zini o'stirishni qo'llash maqsadida taniqli mahalliy va xorijiy musiqa va san'at arboblari jalb qilgan holda doimiy mahorat darslarini tashkil qilish uchun har bir hududda bittadan bazaviy bolalar musiqa va san'at maktablarini belgilash.	doimiy	Madaniyat vazirligi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
IV. Bolalar musiqa va san'at maktablari o'qituvchilari, konsertmeysterlari va sozlovchilarini tayyorlash va ularning malakasini uzluksiz oshirish tizimini takomillashtirish			
23.	R. Glier nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa akademik litseyi va hududlardagi musiqa va san'at kollejlari negizida bolalar musiqa va san'at maktablari o'qituvchilari, konsertmeysterlari va sozlovchilarining malakasini oshirish kurslarini tashkil qilish bo'yicha Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasini ishlab chiqish va kiritish.	2016 yil I chorak	Xalq ta'limi vazirligi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi
24.	Har yili bolalar musiqa va san'at maktablarining qariyb 2 mingta o'qituvchi va konsertmeysterlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish.	2016 yildan boshlab har yili	Madaniyat vazirligi, Moliya vazirligi
25.	2016/2017 o'quv yilidan boshlab har yili bolalar musiqa va san'at maktablari uchun pedagogik kadrlarni tayyorlash yo'nalishi bo'yicha O'zbekiston Davlat konservatoriyasi, Milliy rassomchilik va dizayn instituti, Davlat san'at va madaniyat instituti, Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabiga qabul kvotalarini belgilash.	2015 yildan boshlab har yili dekabrda	Iqtisodiyot vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Madaniyat vazirligi, Moliya vazirligi

26.	O'zbekiston Davlat konservatoriyasi, Milliy rassomchilik va dizayn instituti, Davlat san'at va madaniyat instituti, Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabida bolalar musiqa va san'at maktablari uchun pedagogik kadrlarni tayyorlash bo'yicha maxsus kafedralarni tashkil qilish.	2016 — 2020 yy.	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Madaniyat vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi
27.	Bolalar musiqa va san'at maktablari o'qituvchilariga qo'yiladigan malaka talablarini yanada takomillashtirish.	2015 yil IV chorak	Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi
28.	Bolalar musiqa va san'at maktablarining o'qituvchi va konsertmeysterlarning takomillashtirilgan malaka talablaridan kelib chiqqan holda bolalar musiqa va san'at maktablari uchun kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarining o'quv reja va dasturlarini qayta ko'rib chiqish va tasdiqlash.	2016 yil I chorak	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi, Xalq ta'limi vazirligi
V. O'quvchilar qamrovini yanada kengaytirish va bolalar musiqa va san'at maktablari quvvatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish, barcha qatlamdagi aholining iqtidorli farzandlarini ijod bilan shug'ullanishga qo'shimcha qulay shart-sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan ta'lim to'lovi tizimini takomillashtirish			
29.	Bolalar musiqa va san'at maktablarida umumta'lim maktablarning o'quvchilarini o'qitish qamrovini respublikaning butun hududlari bo'yicha kamida 1,3 barobarga oshirish.	2016 — 2020 yy.	Madaniyat vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi

30.	Musiq va san'at maktablarida o'qitishning differensiyalashgan to'lov tizimini joriy etish, jumladan musiqa yo'nalishlari bo'yicha Toshkent shahrida eng kam ish haqining 75 foizigacha, viloyat markazlarida 50 foizgacha, Qoraqalpog'iston Respublikasi va boshqa aholi zich joylashgan punktlarda 30 foizgacha, san'at yo'nalishi bo'yicha tegishli eng kam ish haqining 50 foiz, 30 foiz va 20 foizigacha tushirish. Xalqaro (1 — 3 o'rinlar) va respublika (1-o'rin) tanlovlari g'oliblarini yillik to'lovlarni to'lashdan ozod qilish, bir oiladan 2 yoki undan ortiq bolalar o'qiganda har bir bolaning o'qishiga belgilangan summaning 70 foiz miqdorida to'lov belgilash.	2015 yil IV chorak	Xalq ta'limi vazirligi, Madaniyat va sport vazirligi, Moliya vazirligi, Adliya vazirligi
31.	Bolalar musiqa va san'at maktablarida o'quvchilar o'qishiga to'lanadigan to'lov tizimiga kiritilgan o'zgarishlar va imtiyozlar haqidagi ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritish va aholining keng qatlamiga yetkazish.	2015-2016 yy.	O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi, Xalq ta'limi vazirligi
32.	Bolalarni musiqa va san'atga qiziqishini oshirish maqsadida ommaviy axborot vositalarida musiqa va san'at bilan shug'ullanishning o'sib kelayotgan avlodni har tomonlama va yuqori zakovatli rivojlanishiga ijobiy ta'sirini, musiqa va san'at maktablarida bolalarni o'qitish uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlarni, o'quvchilarning ijodiy yutuqlarini, ayniqsa xalqaro tanlovlardagi yutuqlarini keng targ'ib qilish.	doimiy	O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi, Madaniyat vazirligi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 20-noyabrdagi PQ-2435-son qaroriga
4-ILOVA

**Yangi qurilgan va mukammal rekonstruksiya qilingan bolalar musiqa va san'at maktablari
obyektlarini foydalanish uchun qabul qilish Davlat komissiyasi**

TARKIBI

M.M. — madaniyat vaziri, komissiya raisi

Muratov

M.I. — "Davarxitektqurilish" qo'mitasi raisi o'rinbosari, komissiya raisi o'rinbosari

Shodiyev

D.R. — iqtisodiyot vaziri o‘rinbosari
Turdiyev
J.A. — moliya vaziri o‘rinbosari
Qo‘chqorov
B.N. — ichki ishlar vaziri o‘rinbosari
Kurbanov
S.S. — sog‘liqni saqlash vaziri o‘rinbosari, O‘zbekiston Respublikasi Bosh davlat sanitariya
Saydaliyev vrachi
A.T. — “ToshuyjoyLITI” AJ direktori
Azizov
lavozimi — Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining, viloyatlar va Toshkent
bo‘yicha shahar hokimlarining kapital qurilish masalalari bo‘yicha o‘rinbosarlari, hududiy
madaniyat boshqarmalari, xalq ta’limi va Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi
filiallarining rahbarlari

Izoh: Komissiya a‘zolari boshqa ishga o‘tganda uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan shaxslar yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklatilgan shaxslar kiritiladi.

(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015-y., 47-son, 594-modda; 2017-y., 20-son, 354-modda, 35-son, 923-modda)